

с.н.в. 4233900

44, 12, 31, 000-00003 и

42449999  
K. M. M. M.



«ТАСДИҚЛАЙМАН»

ШБРАКМ Бош шифокор

Исканджанова Н.И.

2022 йил

# Болалар Рухий Асаб Касалликлари Марказининг «Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати»

## ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ

**Буюртмачи: - ШБРАКМ**

**Бажарувчи: таъминот бўлими**  
**таъминотчиси** \_\_\_\_\_



**I. Танлов иштирокчиси учун йўриқнома,**

**II. Танловнинг техник қисми**

-шундан оқибат

-биринчи

-инини

-пятикунчалик

+филлохон

+кофебо

+эблоркеллоркофебо

-кондр

инини

-шундан оқибат

-биринчи

-инини

-бах

+эблоркеллоркофебо

+юкловин кесиллоркофебо

-кондр

+инини

инини

-кондр

-инини

-шундан оқибат

-бах

+юкловин кесиллоркофебо

+инини

+инини

+инини

инини



**Хизмат номи:** Ер ости кудукларини лойихалаш ва бургалаш хизмати

**Танлашни утказиш шакли:** Электрон шаклда.

**Шартноманинг бошлангич бахоси 304 000 000 (уч юз тўрт миллион ) сум**

**Иштирокчилар куйидаги мезонларга амал қилган ҳолда танловда иштирок этишлари мумкин:**

- шартномани бажариш учун зарур техникавий, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги;
- шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгаллик;
- солиқлар ва бошқа мажбурий туловларни тулаш бўйича қарздорликнинг мавжуд эмаслиги;
- узига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги;
- инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги

**Таклифларни тақдим этиш муддати бошланадиган ва тугайдиган сана:**

Махсус ахборот порталига лот жойлаштирилган кундан бошлаб 7 календар кун и давомийлигида белгиланган вақтга қадар.

**Буюртмачининг юридик манзили:** Тошкент шаҳар, Миробод тумани Эски Сарикул 2 уй

**Танлов ҳужжатларини расмийлаштириш талаби:**

- танлов иштирокчиси факат битта таклиф беришга ҳақли;
- танлов ҳужжатларида тузатишларга (матн, суз ва рақамларни буяш) йул қуйилмайди. Агарда ҳужжатларда тузатишлар аниқланса ушбу танлов ҳужжати комиссия томонидан четлаштирилади;
- танлаш иштирокчиси тақдим этилаётган ахборот ва ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва тугрилиги учун жавобгар булади.

**Танловга тақдим этиладиган ҳужжатлар:**

- тижорат таклифи
- танлаш иштирокчилари томонидан коррупция қуринишларига йул қуймаслик бўйича ариза.
- солиқлар ва бошқа мажбурий туловларни тулаш бўйича қарздорликнинг мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома;
- узига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги ҳақида маълумотнома;
- инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги тугрисида маълумотнома;
- ташкилотнинг руйхатга олинганлик гувоҳнома нусхаси (ташкilot раҳбари томонидан муҳр ва имзо билан тасдиқланган булиши лозим);



томонидан мухр ва имзо билан тасдиқланган булиши лозим);

## ТЕХНИК ТОПШИРИК

### 1. Курсатилаётган хизматларнинг хусусиятлари ва кулами.

- 1.1. Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати буйича мажмуасидир.
- 1.2. “Пудратчи” Ер ости кудукларини лойихалаш ва бургалаш хизмати амалга оширади Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати тармогининг текширилиши, Насос агрегатини уртаниш билан кудукни бургалиш. Диаметри 25мм, 50мм, 75мм, 90мм, 14мм булган полиэтиленли кувурларни ётказиш. 2 метр чуқурликдаги хандакларда турпокни киялик билан маҳкамлашсиз кулда казиш. Диаметри 50мм, 75мм булган кийма темир эшикли ваналар ёки кайтарилмайдиган вальфларни урнатишаъмирлаш ишлари
- Пудратчига куйиладиган талаблар**
- 1.3. Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати учун ташкилотнинг рухсат этиладиган сертификати ва юкори малакали ишчи ходимларнинг мавжудлиги.
- 1.4. “Пудратчи”, буюртма буйича ишларни бажариш учун мутахассисларнинг уз вақдида Буюртмачига юборишни таъминлаш.
- 1.5. “Пудратчи” хар кандай ишларни сифатсиз бажарган булса, ушбу ишлар учун зарур буладиган материаллар ва эҳтиёт қисмларни уз маблаглари ҳисобидан кайта амалга ошириш.
- 1.6. Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати учун замонавий электр ва механик асбоблари ва диагностика ускуналаридан фойдаланадиган малакали мутахассислар томонидан амалга ошириш. Барча улчаш асбоблари ва асбоб-ускуналар “Пудратчи”нинг мулки булиши шарт.
- 1.7. “Пудратчи” иш вақтини ташкил этиш ва назорат қилиш, шунингдек меҳнат муҳофазаси, ёнгин хавфсизлиги ва техника хавфсизлиги қоидаларини тулик риоя этишни таъминлаш.
- 1.8. “Пудратчи” уз ходимларини иш қуроллари, шахсий химоя воситалари, иш кийимлари, махсус жиҳозлар ва сарфланувчи материаллар билаи таъминлаш.

### 2. Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати ишлари

- 2.1. Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати тармогининг текширилиши;
- 2.2. Насос агрегатини уртаниш билан кудукни бургалиш
- 2.3. Диаметри 25мм, 50мм, 75мм, 90мм, 14мм булган полиэтиленли кувурларни ётказиш
- 2.4. 2 метр чуқурликдаги хандакларда турпокни киялик билан маҳкамлашсиз кулда казиш.
- 2.5. Диаметри 50мм, 75мм булган кийма темир эшикли ваналар ёки кайтарилмайдиган вальфларни урнатишаъмирлаш ишлари.

### 3. Иш жойи

- 3.1. “Буюртмачи”нинг Ер ости кудугини лойихалаш ва бургалаш хизмати ишлари, Тошкент шаҳар, Миробод тумани, Эски Сариккуль-2 уйда жойлашган шаҳар Болалар Рухий Асаб Касалликлари Маркази биносида амалга оширилади.



#### 4. Бошка шартлар

4.1. Иш, байрам, дам олиш ва таътил кунларида, шунингдек, куннинг коронгу вақтларида “Пудратчи”нинг “Ишонч телефони” мавжудлигини таъминланиши шарт.

4.2. “Пудратчи” ишонч телефонлари 24/7 давомида ишлашни хамда камида бир киши ишонч телефонига хизмат курсатишини таъминлаши шарт.

4.3. Пудратчининг ишонч телефонлари руйхатини Буюртмачига шартнома тузилгандан сўнг берилишини таъминлаш хамда телефон ракамларидаги Узгаришлар тугрисида маълумотни бир иш куни давомида Буюртмачининг вакилларига етказилиши таъминлаш.

4.4. Курсатилган хизматларнинг натижасини қабул қилиш, курсатилган хизматлар учун қабул қилиш далолатномасини имзолаш орқали амалга оширилади. Пудратчи буюртмачига курсатилган хизматлар учун қабул қилинганлиги тугрисидаги далолатномани ва ҳисоб-фактурани такдим этади. Курсатилган хизматларни қабул қилиш тугрисидаги далолатнома имзоланади.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:  
dav\_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAIEV BOBIR A

Sana:27-09-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 62956**

**Obyekt nomi** «Toshkent shahar, Mirobod tumani, Eski Sarikul ko'chasi 2-uyda manzilidagi Shahar bolalar ruhiy asab kasalliklari markazi hududida quduqni burg'ulash hamda sug'orish suv tizimini qurilishi.»

**Buyurtmachi** - Shahar bolalar ruhiy asab kasalliklari markazi.

**Bosh loyihachi** - "Maroqand Bunyodkor Qurilish" MChJ

**Litsenziya** AL-001767-son, 29.04.2021 yil. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi.

**Moliyalashtirish manbai** - Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan.

**Bosh pudratchi** - Tanlov asosida aniqlanadi.

**Qurilish turi** Yangi qurilish.

**Murojaat raqami:** № 57552

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Toshkent shahar hokimining 2022-yil 13-apreldagi 376-14-0-Q/22-son Qarori.

1.2. Toshkent shahar hokimiyati Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasining 2022-yil 16-apreldagi 97-son buyrug'i.

1.3. Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining 2022-yil 1-martdagi VI-57-39-14-0-K/22-son qarori.

1.4. "O'zbekgidrogeologiya" DUK tomonidan 2022-yilda ishlab chiqilgan gidrogeologik xulosasi.

1.5. Buyurtmachi tomonidan 2022-yil tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Loyiha-smeta hujjatlarining "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat:

Loyihaning umumiy tushuntirish xati.

Quduq loyihasi.

Sug'orish suv tizimini.

Elektr loyihasi.

Qurilishning xarajatlar umumiy smeta hisob-kitoblari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

### **Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari.**

Qurilish maydoni- Toshkent shahar, Mirobod tumani hududida joylashgan bo`lib, huddudni sug`orish uchun quduq loyhasi ishlab chiqilgan.

- hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 8 ball.
- shamolning me`yoriy og`irlik kuchi - 38 kg/m<sup>2</sup>
- qorning me`yoriy og`irligi - 50 kg/m<sup>2</sup>
- yerning muzlash qatlami chuqurligi - 0,7 metr
- tuproqning cho`kish sharoiti bo'yicha turi - I.

Loyiha doirasida Toshkent shahar bolalar ruhiy asab kasalliklari markazida 1 dona quduq qazib, yashil maydonlarini sug`orish suvi bilan ta'minlash uchun hal etiladi. Quduqlarni loyihalash uchun asos sifatida "O'zbekgidrogeologiya" Pritashkent dala gidrogeologik ekspeditsiyasining 2022-yilda o'tkazilgan gidrogeologik xulosasi hisoblanadi.

### **Konstruktiv yechimlar.**

#### **Nasos stansiyasi (yer ostida barpo qilinish turida).**

Suvni chiqarish-4 sektsiyali, filtrlashga qarshi ekranli beton qoplamadan. Sektsiyaning o`lchamlari ichki sirtlari bo'yicha LxBxH=2,0x2,0x1,4 (h) metr, tub qismi sathining raqamiy o`lchami-1,0 metr.

Devorlari va tub qismi qalinligi 200 mmli quyma temirbetondan bo`lib B15, W4 sinfli betondan.

Tayyorlov qatlami 100 mm bo`lqan tosh qum qorishmadan.

Lyuk 30x30x2,5 o`lchamli metall karkasli bo`lib, 0,45 mm qalinlikdagi profnastil qoplamali.

Uskunaning poydevorlari B15 W4 sinfli betondan.

Xajmi 30m<sup>3</sup> suv saqlash rezervuari.

Sektsiyaning o`lchamlari ichki sirtlari bo'yicha LxBxH=2,8x2,8x3,4 (h) metr, tub qismi sathining raqamiy o`lchami-3,55 metr.

Devorlari va tub qismi qalinligi 200 mmli quyma temirbetondan bo`lib B15, sinfli betondan.

Tayyorlov qatlami B7,5 sinfli betondan bo`lib, qalinligi 100 mm.

Devorlar gidroizloyatsiyasi issiq bitum bilan 2 matra qoplanadi.

Ustki yopmasi qalinligi 150 mm bo`lgan B15 sinfli betonli quyma temirbetondan.

Lyukning diametri 700 mm.

### **Harajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.**

Ob`ektning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan ob`ektning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 15% QQS bilan hisoblanganda 865 996,050 ming so'mni tashkil qiladi.

## **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

### **Quduq loyihasi.**

Quduqning tahminiy chuqurligi 30 metr.

Kutilayotgan sho'rlanish ko'rsatkichlari 1,0 g/l gacha va undan yuqori.

Quduqning oqim tezligi 20,0 litr sekundgacha.

Statik daraja 4,0 - 6,0 m.

### ***Burgu`lashda.***

0,0-30,0 metr - D 273 mm.

### ***Chuqurlikga uzatish quvurlari:***

0,0 - 15,0 metr - D 273 mm.

15,0 - 27,0 metr intervalida 12 metr uzunlikdagi D 273 mm filtr.

27,0 - 30,0 m - metr D 273 mm.

Nasosni o'rnatishning tahminiy chuqurligi - 15,0 m.

Taklif etilayotgan nasos uskunasi ishlab chiqarish hajmi 16 m<sup>3</sup>/soat.

### ***Sug'orish tizimi.***

Sug'orish suv ta'minoti tarmog'i suv bosimi polietilen quvurlaridan mo'ljallangan SDR Ø110,75,50,25 mm GOST 18559-2001. Sug'orish ta'minotini manbasi loyihalashtirilayotgan suv qudugi.

### ***Elektr ta`minoti.***

Elektr ta`minoti toifasi -III.

Obyektning hisoblangan quvvati -9,5kVt.

III-toifadagi ishonchli elektr ta`minotini ta`minlash uchun mavjud VRU-1 hilidagi qutidan 0,66kV kabellar o`tkazilishi ko`zda tutilgan.

Loyihada uzunligi 60 metr AVBbShv-5x16mm<sup>2</sup> rusumli kabellarni mahalliy yo`llar chetidan irigatsiya lotoklari bo`ylab PND quvurlarida 0,7 metr chuqurlikda yotqizilishi ko`zda tutilgan.

## **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Loyiha hujjatlari buyurtmachi va kelishilgan. Buyurtmachining qo`shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

## **6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza taqdim etilgan ishchi loyihaaning konstruktiv yechimlari, quduq loyihasi, elektr ta`minoti, sug`orish suv tizimi loyihasi hamda smeta hujjatlari ko`rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- Loyihachining 2022-yil 26-sentabrdagi 252-son xatiga asosan oraliq ekspertiza xulosalariga javob xatlari taqdim qilindi;

- Sog`liqni saqlash Bosh boshqarmasining 2022-yil 16-apreldagi 97-son buyrug`i taqdim qilindi;

- ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihasidagi tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini qayta hisoblash natijasida joriy narxlarda QQS bilan hisoblanganda-106 280,956 ming so'mga kamaytirildi.



Ishchi loyihasining dastlabki smeta xarajatlar hisob-kitobini kamaytirilishi yoki pasayganligi mashina va mexanizmlarning narxlari, qurilish materiallari narxlari va transport xarajatlarini aniqlashtirish orqali qayta hisoblanish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi ob'yekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga rioya etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga qat'iy rioya qilinsin.

Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarorining 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ekspertiza natijalari buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, e'tiroz va qo'shimcha ko'rsatmalar mavjud emas.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

Toshkent shahar hokimining 2022-yil 13-apreldagi 376-14-0-Q/22-son qarori hamda Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasining 2022-yil 16-apreldagi 97-son buyrug'i ajratilgan limitga amal qilinsin. Buyurtmachi taqdim etilgan barcha ishlarni bajarish uchun o'rnatilgan tartibda tegishli tashkilotlar bilan kelishuv bayonnomasi asosida qo'shimcha mablag` ajratilishi kelishilsin va limit miqdori qayta ko`rib chiqilsin.

## **7. Xulosalar.**

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Eski Sarikul ko`chasi 2-uyda manzilidagi Shahar bolalar ruhiy asab kasalliklari markazi hududida quduqni burg`ulash hamda sug`orish suv tizimini qurilish ishlari bo'yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarsiz va 15% QQS bilan hisoblanganda 759 715,094 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:



- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlar - 42 577,460 ming so'mni;
- qurilish materiallari va mahsulotlari uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar - 379 175,618 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari (12%) xarajatlari bilan hisoblanganda - 113 922,656 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 33 928,554 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%) - 91 017,533 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (15%) - 99 093,273 ming so'mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

Buyurtmachi ob'yekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

**Bosh mutaxassis:** Asatillayev Sardor Asatilla o'g'li

**Ishtirokchi ekspertlar:**

TURAEV SHOHRUX ILXOMOVICH

DOSMUXAMEDOVA MARIYA VALEREVNA

KURPELYANSKAYA IRINA BORISOVNA

SAYDALIYEVA LAYLO XASAN QIZI